



THE PERSONALITY OF AMIR TIMUR IN THE DIARY OF RUY GONZALEZ DE CLAVIJO AND ITS HISTORICAL INTERPRETATION

Nafisa Shakirova

Leading Teacher of the subject “Fundamentals of State and Law”

Tashkent “Temurbeklar School” Military Academic Lyceum

E-mail: nafisa.shakirova.88@list.ru

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Amir Timur, patriotism, army, soldiers, ministers, troops, warriors, ring, advice, youth, military patriotism.

Abstract: This article analyzes the place of Amir Timur in world history based on Ruy González de Clavijo’s work “Embassy to Tamerlane: Diary of a Journey to the Court of Timur in Samarkand in 1403–1406.”

Received: 11.04.26

Accepted: 12.04.26

Published: 13.04.26

RUY GONSALES DE KLAVIXO KUNDALIGIDA AMIR TEMUR SHAXSIYATI VA UNING TARIXIY TALQINI

Nafisa Shakirova

Toshkent “Temurbeklar maktabi” harbiy akademik litseyi

Davlat huquq asoslari fani yetakchi o‘qituvchisi

E-mail: nafisa.shakirova.88@list.ru

Tashkent, O‘zbekistan

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: Amir Timur, vatanparvarlik, sipoh, askarlar, vazirlar, lashkarlar, navkar, uzuk, o‘git, yoshlar, harbiy vatanparvarlik.

Annotatsiya: Ushbu maqolada Amir Temurning jahon tarixidagi o‘rni Ruy Gonsales de Klavixoning “1403–1406-yillarda Samarqandda Temur saroyiga sayohat kundaligi” asari asosida tahlil qilinadi.

ЛИЧНОСТЬ АМИРА ТЕМУРА В ДНЕВНИКЕ РУЯ ГОНСАЛЕСА ДЕ КЛАВИХО И ЕЁ ИСТОРИЧЕСКАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ

Нафиса Шакирова

Ведущий преподаватель предмета «Основы государства и права»

Тошкентский военный академический лицей «Темурбеклар мактаби»

E-mail: nafisa.shakirova.88@list.ru

Тошкент, Ўзбекистон

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Амир Темур, патриотизм, войско, солдаты, визири, молодежь, военный патриотизм.

Аннотация: В данной статье анализируется место Амира Темура в мировой истории на основе произведения Клавихо «Дневник путешествия ко двору Тимура в Самарканд в 1403—1406 гг.»

Kirish. Amir Temur (1336–1405) jahon tarixida muhim o‘rin tutgan buyuk sarkarda va davlat arbobidir. U barpo etgan Temuriylar davlati Markaziy Osiyo, Yaqin Sharq va Kavkaz hududlarida katta siyosiy ta‘sir ko‘rsatgan. Uning shaxsi haqida Sharq va G‘arb tarixchilari turlicha qarashlar bildirganlar.

Zero, Amir Temur bundan olti yarim asr avval dunyoning Aleksandr Makedonskiy, Chingizxon kabi kamdam-kam hukmdorlariga nasib etgan cheksiz hudud va ixtiyor sohibi bo‘lishdek jahongirlikni takrorlaydi va o‘sha vaqtlarda butun dunyo siyosatini yetakchi markazi bo‘lgan imperiyani yaratdi. Uning ta‘sir maydoni qamrovi Mo‘g‘ilistondan to O‘rta yer dengizigacha, manfaatlari Atlantika okeanidan to Tinch okeanigacha yetib borgan. Osiyo va Yevropa uning siyosiy irodasiga bo‘ysungan. XIV asr oxiri XV asr boshlarida Yer kurrasida Amir Temur davlati qudrati jihatidan yagona tengsiz imperiyaga aylandi. [1.B.-193].

Amir Temur markazlashgan kuchli davlat barpo etgan, harbiy intizomni mustahkamlagan va savdo yo‘llari xavfsizligini ta‘minlagan. Uning siyosati natijasida Samarqand yirik madaniy markazga aylangan. Amir Temur – jahon tarixida buyuk siymolardan biridir. Biz ushbu maqolada Amir Temurninig amalga oshirgan ishlarini emas balki, Amir Temur shaxsiyati bilab bog‘liq bo‘lgan manbalar haqida fikr bildirmoqchimiz. Asrlar mobaynida jahonning 50 dan ortiq davlatlarida Buyuk bobokalonimiz mavzuida behad ko‘p tarixiy, adabiy va san‘at asarlari yaratilgan. Ularni bir joyga to‘plashni imkoni bo‘lsa, dunyoning eng mahoratli kutubxonalaridan biri dunyoga kelar edi. Yuqorida keltirganimizdek, Ayrim tarixchi olimlar uni makedoniyalik Aleksandr, Attila, Chingizxon kabi jahongirlar qatorida tilga olib kelishdi. [2.B-10].

Ammo bobokalonimizning tarixdagi o‘rni yuqorida nomlari tilga olingan hukmdorlardan mutloqo farq qiladi. Amir Temur nafaqat o‘z vatanini chingiziy mo‘g‘ullar istibdodidan xalos qildi, ayni paytda, u mo‘g‘ullar istibdodining qudratli tayanchi bo‘lgan Oltin O‘rdani tor-mor etib, Sharqiy Yevropa mamlakatlari, ayniqsa, Rossiya va Ukrainaninig chingiziy mo‘g‘ullar iskanjasidan qutilib chiqishi uchun qulay sharoit yaratdi.

1402 yilda esa, Anqara yonida Boyazid I Yeldirim ustidan zafarga erishgach, butun Yevropa turk sultoniga qaramlikdan qutilib, keyingi ellik yil mobaynida emin-erkinlikda nafas

olib yashadi. Shu sababli, o'z davrida yevropaliklar tomonidan Amir Temur "Yevropa xaloskori", deb e'tirof etilgan edi.


Ruy Gonsales de Klavixoning "Samarqadga - Amir Temur saroyiga sayohat kundaligi" (1403-1406 yillar), Amir Temurning hayoti va olamshumul tarixiy xizmatlariga doir, bebaho manbadir. Ushbu asar XV asr boshlarida diplomatiya va tashqi siyosat tarixi bo'yicha boy manba hisoblanadi.

Ruy Gonsales de Klavixo Amir Temurninig Ispaniya va boshqa Yevropa qirollariga yuborgan Muhammad al-Keshiy elchiligiga javobon yuborilgan. [3.B.-126].



Ushbu asar ispan elchisining 1403-1406-yillarda O'rta Yer dengizi sohilidagi mamlakatlarda, Turkiyada, Kavkaz orti yerlarida, Eronda va Turonzaminda, xususan, Amir Temur saltanatida hamda bevosita uning saroyida ko'rgan-bilganlarini, bu davrda elchining o'z qalbida kechgan turli-tuman o'y-fikrlarini ham aks ettirgan. Klavixo o'z asarida Amir Temurni juda kuchli, ulkan siyosiy ta'sirga ega hukmdor sifatida tasvirlaydi. U Temur imperiyasining boyligi, tartib-intizomi va hukmdor sifatidagi nufuzini hayrat bilan yoritadi. Demaki, Klavixo uni oddiy hukmdor emas, balki markaziy Osiyo va Sharq siyosatida juda katta rol o'ynaydigan shaxs sifatida ko'radi. Sohibqiron bilan bo'lgan uchrashuvlar, rasmiy marosimlar va suhbatlar haqida yozadi. Bu tasvirdan bilish mumkinki, u Amir Temurni hurmat bilan qabul qilingan mehmonsevar, diplomatik aloqalarni qadrllovchi hukmdor sifatida ko'radi. Bu esa uning shaxsiy qarashida Amir Temurning nafaqat harbiy, balki siyosiy jihatlariga ham e'tibor berganini ko'rsatadi.

Yana ham qizig'i Klavixo asarida Amir Temur bayrog'idagi tamg'asi haqida ma'lumot keltiriladi. Unda Klavixo: "Temurbekning tamg'asi esa uch xalqa doiradan iborat bo'lib, bunday joylashtirilgan:



Bu tamg'a, Temurbek - dunyoning uch qismi podshosi, degan ma'noni anglatadi. Podshoh farmoishi bilan bu tamg'a tangalarga va boshqa saltanat buyumlariga zarb etilgan edi." [2.B-148]. Lekin ushbu qarash haqida tarixchilar turlicha talqin qiladilar: uch doir belgisini ayrimlar Uch qit'a (Osiyo, Yevropa, Afrika) ustidan hukmronlik ramzi

deb, ayrimlar esa, Kuch, birlik va hokimiyat timsoli sifatida talqin etadilar.

Klavixo o‘z asarida, “O” shaklidagi uch doiradan iborat saltanat muhrida aks etgan tamg‘ani podshoh o‘ziga boj to‘lab turadigan mamlakatlarining pullariga ham zarb etishni buyurgani haqida ma’lumot beradi.

Amir Temurning yuz tuzilishi va tashqi ko‘rinishi haqida Klavixo quyidgicha ma’lumot beradi: bo‘yi balandroq, yoshi katta (u uchrashgan paytda taxminan 68 yoshda bo‘lgan), yuzida jiddiy va salobatli ifoda borligini, sochi va soqoli oqargan sifatida tasvirlaydi. U Temurning oyog‘ida eski jarohatining asorati bo‘lishiga qaramay, ruhiy qudrati va hukmdorlik salobati kuchli ekanini alohida ta’kidlaydi[4.].

Lekin aytishimiz lozimki, Amir Temurning oqsoqligi — Klavixo va boshqa manbalarda qayd etilgan.

Klavixo kitobida Soxibqironga nisbatan oddiyini qadar murakkab baho mavjud — u Temurning afzalliklarini (qudrat, nufuz, tashkiliy salohiyat) ham, uning qat’iy hukmron tizimini ham qayd etadi. Bu shuni anglatadiki, Klavixo uni bir tomonlama idroklamay, balki tarixiy rolini real voqea sifatida yozgan.

Shuningdek, asarda Amir Temur “Temurbek”, Ulug‘ amir” deb katta ehtirom bilan tilga olingan. Asarning 71-bobida Klavixo shunday yozadi:

“Temurbekning asli ismi biz ataganimizday Temurlan emas, Temurbekdir. Chunki Temurbek ularning o‘z tilida “Temur podsho” degani, podsho ularning tilida “bek” [2.B-10].

U Temurning tashqi ko‘rinishi haqida qisqa, lekin muhim tavsif beradi. Jarohati va yuz tuzilishi tashqi ko‘rinishi haqida. Klavixo tomonidan Samarqandga safari bo‘yicha 1859-yilda Londonda nashr etilgan esdaliklarida Amir Temurga tashqi ko‘rinishiga quyidagicha ta’rif beradi: “Temur bir oyog‘idan oqsoq bo‘lgan, bir qo‘lida ham jarohat asorati bor. U yoshi katta bo‘lsa-da, hushyor va kuchli ruhiy holatda edi.” [4.]. Klavixoning esdaliklarini Kundaligi”1881-yildagi nashridan filologiya fanlari doktori, professor Ochil Tog‘aev tomonidan amalga oshirilgan tarjimada mana shu joyi quyidagi tarzda o‘zbek tiliga o‘girilgan. “Temurning o‘zi otdan yiqilib, o‘ng oyog‘i va o‘ng qo‘li jarohatlanagan. U o‘ng qo‘linig ikki kichik barmog‘idan judo bo‘lib, o‘ng oyog‘i bir umrga oqsoq bo‘lib qoladi”. [2.B-148].

Aynan shu oqsoqligi sababli u Sharqda “Temur Lang” (“Oqsoq Temur”) nomi bilan tanilgan. Klavixo tomonidan Amir Temur mazkur jarohatni qacda va qay tarzda olganligi haqida ma’lumot jang emas talonchilik (U Seiston degan boy chorvadorlar yurtiga borib, qo‘y, ot va boshqa duch kelgan narsalarni talaydi). [2.B-150] deb ko‘rsatiladi. Bu esa Amir Temur shaxsiyatiga nisbatan noto‘g‘ri ma’lumot. bu haqda xatto prosessor O.Tog‘aev ham asar tarjimasi so‘ngida:

“Amir Temurning oqsoqlikka uchrashi talqinida Klavixo xaqli emas. U bu masalada og‘izda yurgan “mish-mish” gaplarga suyanadi [2.B-246]. .

Voqeaning asl sabablari to‘g‘risida malumotni asoslash uchun Amir Temurning “Temur tuzuklari” asariga yuzlansak: “Seiston voliysi ... elchi orqali sovg‘a-salomlar yuborib , mendan yordam so‘radi, “Dushmanlarim menga zulm qilib, qo‘limdan yetti qal‘amni tortib oldilar. Agar mendan dushman qo‘lini qisqa qilsalar, askarlariga olti oylik oziq-ovqat yetkazib berardim» degan edi. O‘zimcha kengashib ko‘rib, Seyiston tomonga lashkar tortishni ma‘qul topdim. Dushmanlar egallab olgan yetti qal‘adan beshtasini kuch va qahr bilan olganimni ko‘rib, Seyiston voliysining yuragiga qo‘rquv tushdi va kechagi dushmanlarini endi o‘ziga do‘st tutdi. Agar Amir Temur bu yerlarda turib qolar ekan, Seyiston mulki qo‘limizdan ketishi aniqdir, deyishib, sipohi va raiyati barchasi birlashib, mening ustimga bostirib keldilar. Seyiston voliysi va‘dasiga vafo qilmagani uchun ilojsiz qolib, ularga qarshi jangu jadalga kirishdim. Shu payt bir o‘q kelib tirsagimga qadaldi, yana bir o‘q oyog‘imga tegib yaraladi. Shunday bo‘lsa ham oxiri ular ustidan g‘alaba qozondim. Lekin o‘sha mamlakatning ob-havosini mizojimga muvofiq ko‘rmay, u yerdan ko‘chib, yana Garmsirga bordim. O‘sha viloyatda yaralarim bitguncha ikki oy turib qoldim”, [5.B-30] -deb ta‘kidlaydi Amir Temur.

Amir Temurni jarohat olishi bilan bog‘liq yana bir dalil sifatida Nizomiddin Shomiyning Zafarnoma asariga yuzlansak asarda ushbu jangda:

“Amir Sohibqiron jilovni burib, o‘z maqomi (qul) tomon yo‘l oldi. Dushmanlar o‘q-yoy yog‘dirdilar va jahon ahli bo‘ysinuvchi amirning oti majruh bo‘ldi.” [6.B-26] deb talqin qiladi.

“Amir Temur jahon tarixida” ilmiy tarix asarida Sharofiddin Ali Yazdiyning yozishicha “Amir sohibqiron «so‘l qo‘lini alifdek va o‘ng qo‘lini doldek» [7.B-35].

qilishidan ko‘rinadiki, u kamalak yoyini chap qo‘li bilan ushlab, o‘ng qo‘li bilan vatarini va o‘q bashog‘ini tortgan” ya‘ni 1362-yili Seyistonda o‘q yegan o‘ng qo‘lini istaganicha egabergan va o‘sha yaradorligining asoratini sezmagan” [7.B-319].

Amir Temurninig jarohatlari uning jangavorlik faoliyatiga butunlay bezarar edi.

Ushbu asar ilk marta 1582-yilda Seviliya shahrida Argote de Molina tomonidan “Xistoria del Grant Tamorlan” (“Buyuk Temurlang tarixi”) nomi ostida dunyo yuzini ko‘rdi. 1779-yilda Ispaniyada Amiriolo degan noshir tomonidan Kastiliya qirolligiga bag‘ishlangan yilnomalarda va memuarlar to‘plamining uchinchi jildi ichida chop etildi. 1782-yilda Antonio Sancha ismli noshir ispanlarga uni yana alohida kitob holida taqdim etdi.

Klavixo asari 1859-yilda Londonda K.Markxem tarjimasida ingliz chop etildi. Ushbu tarjima “Kundalik”ning 1782-yildagi Antonio Sancha tomonidan tayyorlangan ispancha nashr manbai asosida amalga oshirildi.

Xulosa sifatida aytishimiz mumkinki, Klavix o‘z asarida Amir Temurni kuchli, tartibli va siyosiy jihatdan sezilarli hukmdor sifatida tasvirlaydi. U Temur xizmatidagi boylik, harbiy va tashkiliy tizimlarni aniq bayon qiladi. Sohibqiron saroyida birmuncha muddat yashab, u bilan qayta-qayta ko‘rishgan, yuzma-yuz muloqotda bo‘lganli hamda xolisona tasvirlanganligi Amir Temur shaxsiyatini o‘rganishda muxim manba bo‘lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. T.Alimardonov Amir Temur imperiyasi – T.: Yangi asr avlodi, 2021, -B- 8
2. Sh.O‘ljaeva Amir Temur diplomotiyasi: ilmiy-ommabop qo‘llanma.– T.: ”IJOD-PRESS” nashriyoti, 2008, -B -126
3. Rui Gonsales de Klavix o Samarqandga – Amir Temur saroyiga sayohat kundaligi (1403-1406 yillar). T.: ”O‘zbekiston”-2010, B-10
4. Narrative of the Embassy of Ruy Gonzalez de Clavijo to the Court of Timour, 1403–1406 (Clements Markham tarjimasi, 1859).
5. Alixonto‘ra Sog‘uniy, Habibullo Karamatov tarjimasi Amir Temur Ko‘ragon /Temur tuzuklari. T.:”Ochun” nashriyoti, 2021, -B-30
- 6.Nizomiddin Shomiy. Zafarnoma. T.:”O‘zbekiston” nashriyoti,1996.-B-126
- 7.Sharafiddin Ali Yazdiy.Zafarnoma.T:”Sharq” nashriyoti,1997,-B-35